

2-TOM, 5-SON

MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYA MUAMMOLARI

Noraliyeva Gavhar Murodqulovna

Termiz davlat universiteti, Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi

Annotatsiya. Raqamli inqilob hayotimizni va jamiyatimizni misli ko'rilmagan tezlik va ko'rinmas miqyosda o'zgartirib, ulkan imkoniyatlar va shu jumladan ulkan qiyinchiliklarni ham yaratmoqda. Raqamli iqtisodiyot kiberxavfsizlikka tahdidlarni, noqonuniy iqtisodiy faoliyatni osonlashtirish kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli texnologiyalar tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini kengaytirish va butun jamiyat manfaatlarini yo'lida barqaror rivojlanishga qanday hissa qo'shishiga har kuni ko'plab misollar guvohi bo'lmoqdamiz. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar, shuningdek, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali noxush oqibatlariga yo'l qo'ymaslik uchun to'liq ochib berilishi mumkin bo'lgan istiqbollarni muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, taraqqiyot, tizim, internet iqtisodiyoti, xalqaro raqobat, raqamli texnologiya, raqobatdosh, kommunikatsiya.

PROBLEMS OF DIGITAL TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF
THE COUNTRY'S ECONOMY

Noraliyeva Gavhar Murodqulovna

Student of Faculty of Economics and Tourism, Termiz State University

Abstract. The digital revolution is changing our lives and society at an unprecedented speed and at an unprecedented scale, creating enormous opportunities and, at the same time, enormous challenges. The digital economy creates challenges such as threats to cyber security and facilitation of illegal economic activities. Every day we see many examples of how digital technologies can contribute to peacebuilding, human rights and sustainable development for the benefit of society as a whole. This article discusses the problems that may arise as a result of the development of the digital economy, as well as the perspectives that can be fully revealed to avoid unpleasant consequences by strengthening international cooperation.



2-TOM, 5-SON

Key words. Digital economy, digital technologies, development, system, internet economy, international competition, digital technology, competitive, communication.

Kirish. Zamonaviy dunyoning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishiga raqamli inqilob sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy-iqtisodiy o'zaro aloqalarni rivojlantirish, davlatlararo iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash uchun ko'plab sharoitlar yaratadi. Raqamli iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi va samaradorlikni oshiradi. Raqamli iqtisodiyot - bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyatdir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Zamonaviy taraqqiyotning keyingi istiqbolida katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari (Big Data), sun'iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari, buyumlar interneti, robototexnika va sensorika, raqamli elektron platformalar, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari, blokcheyn texnologiyalari, kriptovalyutalar 3D- texnologiyalari singari raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bog'liq muayyan muammolar mavjud. Raqamlashtirish mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi, bu esa bandlik sonini kamaytiradi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun muhim bo'lgan texnologik tarqalish tezligi ham davlatlar uchun yangi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Raqamlashtirish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, resurslarning yetishmasligi, internet tizimi hali to'liq rivojlanmaganligi sababli internet tarmog'ida uzilishlar, ma'lum bir texnologiya qurilmalarining qo'shimcha ehtiyot qismlari yetishmasligi dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Raqamli iqtisodiyotning afzalliklarini maksimal darajada oshirish raqamli infratuzilmaning asosiy darajasiga bog'liq bo'lib, bu ko'plab rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda juda past. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlarning ma'lum texnologik qaramligi mavjud. Bir necha davlatlar orqali o'tadigan ma'lumotlar oqimlari ularni himoya qilish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarga bo'lgan ishonch ortib borayotganligi sababli, davlat muassasalari va korxonalar kiberhujumlarga ko'proq moyil bo'lib qoldi. Rivojlanayotgan mamlakatlar raqamlashtirishning rivojlanish ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun strategik rejalashtirish orqali ko'zlangan maqsadga tezroq erishish mumkin.



2-TOM, 5-SON

Tahlil va natijalar. Raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar va axborotlar bilan ishlashni raqamlar orqali boshqarish uchun qo'llaniladigan texnologiyalar hisoblanadi. Ular, avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili, va avtonom vazifalarni bajarishda yordam beradi. Raqamli texnologiyalar, samarali va qulaylikni ta'minlaydi, bu esa ularni tijorat, ta'lim, tibbiyot, transport, va boshqa sohalarda intensiv ravishda o'zaro bog'liq bo'lib, yangi imkoniyatlar ochadi. Raqamli texnologiyalar dunyo bo'ylab har bir sohani yanada rivojlantiradi va samarali faoliyatni va ta'limni ta'minlaydi. Ular, ma'lumotlar bazalari va tizimlari, algoritmlar, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborotlar tahlili, kiber xavfsizlik, va bir qancha boshqa texnologiyalardan foydalanish orqali ma'lumotlar to'plash, saqlash, va ma'lumotlar bilan ishlash jarayonlarini samarali bajarish imkoniyatini ta'minlaydi. Raqamli texnologiyalar internet, sensorga asoslangan qurilmalar, yuqori hisoblash qobiliyati, asosan so'rovga, malumotlarga, va masofali axborotlarga asoslangan ma'lumotlar bazalari, avtomatlashtirish, kibernetik tizimlar, va matematik modellar orqali yaratiladi.

Raqamli texnologiyalar, mamlakatlarning rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan muhim vositalardan biridir. Ularning rivojlanishi, iqtisodiy, ijtimoiy, va ma'naviy sohada keng imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar mamlakatlarga yangiliklar, samarali xizmatlar, va rivojlanishning har bir sohasida intizomli o'zgarishlar kiritishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar mamlakatni rivojlantirishda bir qancha hissalar bor.

Iqtisodiyot: Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning turli sohalarida samarali rivojlanishni ta'minlaydi. Ularning rivojlanishi, yangi sohalar yaratish, yangi ish o'rinlari yaratish, va yangi xizmatlar kengaytirish imkoniyatlarini beradi.

Ishlab chiqarish: Raqamli texnologiyalar, ishlab chiqarishni avtomatlash va optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. 3D-printerlar, robotlar, va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari, mamlakatlarda ishlab chiqarishning samarali va sodda bo'lishini ta'minlaydi.

Ta'lim va fanlar: Raqamli texnologiyalar, ta'lim sohasida katta o'zgarishlar kiritadi. Ular, onlayn ta'lim, masofaviy ta'lim, interaktiv darsliklar, va shaxsiy ta'lim dasturlarini taqdim etishda ishlatiladi. Telemeditsina, tibbiyot hisob-kitoblar, axborotlar tahlili, va shaxsiy tibbiy xizmatlar bu texnologiyalarning foydalanishidagi misollar.

Iqtisodiy va tadbirkorlikni oshirish: Raqamli texnologiyalar, tadbirkorlik sohasida yangi imkoniyatlarni yaratadi. Bu imkoniyatlar esa o'z o'rnida davlatning iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



2-TOM, 5-SON

Har bir sohaning bir qator ijobiy taraflari bo'lsa, salbiy taraflari ham bo'lishi ehtimoldan yiroq emas albatta. Raqamli texnologiyalar muhim ma'lumotlar bilan birga noto'g'ri ma'lumotlarni ham tez tarqalishiga hissa qo'shishi hammaga ma'lum va bu ayrim hollarda yaxshi oqibatlarga olib kelmaydi. Noto'g'ri ma'lumotlar orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni jiddiy xavotirlarni uyg'otmoqda. Raqamli texnologiyalar orqali olishimiz mumkin bo'lgan katta ma'lumotlar massivlari bilan ma'lumotlar tahlili va uni tushuntirish muammolarini hal qilish uchun chora ko'rish kerak. Bu jarayonlarda ma'lumotlarni qisqartirish, ma'lumotlarga ishlov berish algoritmlari va dasturlarni rivojlantirish, ma'lumotlar tushuntirilishining yaxshi bo'lishini ta'minlash kabi muammolar ortidan keladi. Yangi aloqa usullari va biz har kuni duch keladigan katta ma'lumotlar oqimi bilan soxta yangiliklar endi kundalik hayotimizning bir qismiga aylandi.

Darhaqiqat, aksariyat ijtimoiy tarmoqlarda ko'pchilik foydalanuvchilar o'smirlar yoki yoshlardir. Ularning aksariyati tanqidiy qobiliyatlarini hali rivojlantirmagan va ijtimoiy tarmoqlarda ko'rgan narsalariga osonroq ishonishgani uchun ham ehtimol ularga biror bir noto'g'ri yo'nalish berish va hatto noqonuniy yo'llarga kirib ketishlari ehtimoli yuqori. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar muammolari ko'p tomonlama bo'lishi mumkin. Bulardan: istiqbollar bo'yicha bo'sh joylar, ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanishning huquqiy tartibi, maxfiylik va himoyaga oid muammolar, va texnologiyalar yordamida korxonalar va hodimlar o'rtasidagi muammo va barqarorlik. Raqamli texnologiyalar integratsiyasi va boshqarilishi ham keng qamrovli muammo. Bularni hal qilish uchun siyosiy, huquqiy, va texnologik tartibotlar kerak. Hukumatlar, korxonalar va sohani rivojlantirishga bo'lgan integratsiya, huquqiy va siyosiy muammolar, ma'lumotlarni muhofaza qilish va ularni foydalanish, yangi texnologiyalarni integratsiya qilish va uni muhofaza qilishni ta'minlash, hamda talabalar va mutaxassislar uchun raqamli texnologiyalar bilan ta'lim berish uchun dasturlarni o'rganishning talablarini amalga oshirish uchun yechimlarni izlash lozim.

Raqamli texnologiyalar foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va havfsizlikni ta'minlash uchun mustahkamlanishi kerak. Maxfiylikchilik huquqlari va ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonunchilik va siyosatlar bu muammolarga javob berishi kerak. Raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun kerak bo'lgan infrastruktura yana bir muammolardan biridir. Internet ulanishlari, elektr quvvat taminoti, va kommunikatsiya vositalari kabi infratructura tuzilmagan yoki yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, raqamli texnologiyalardan to'liq foydalanishga imkon berilmaydi. Bunday uzilishlar xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yishga to'sqinlik qiladi. Sifat va muvofiqlik



2-TOM, 5-SON

muhim faktor hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar sohasida dasturiy ta'minotning sifati va muvofiqlik masalalari muhimdir. Ishlab chiqarish jarayonlarida qat'iy nazorat va tekshirishning mavjudligi, dasturiy ta'minotning xatoliklarini kamaytirish, ishlab chiqarish va xizmatlarni sifatini oshirish uchun katta ahamiyatga ega. Bu muammolar hamma bilan birlikda ko'p tomondan yechilishini talab etadi, ya'ni davlat va korxonalar o'rtasidagi hamkorlik, ma'lumot almashish va rivojlanayotgan mamlakatlar orasidagi tajriba almashish muhimdir.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bugungi dunyoda katta ahamiyatga ega bo'lgan jarayon. Bu rivojlanish jamiyatning har bir sohasida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalar sohasidagi muammolar va rivojlanishning tahlili va hal qilinishi davlatlar, korxonalar, akademik tashkilotlar va jamiyatning boshqa sohalari tomonidan amalga oshiriladi. Raqamli texnologiyalar sohasidagi muammolar, davlatlar uchun bir qancha qo'llanmalarga ega bo'lib, ularning muammolarni aniqlash, ularni hal qilish va rivojlantirishda davlatning mas'uliyati katta. Davlatlar raqamli texnologiyalar sohasida siyosat va qonunchilikni tuzish orqali muammolarni aniqlashlari, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olishlari zarur. Davlat raqamli texnologiyalar muammolarini bartaraf etish uchun turli investitsiyalarni jalb qilishi, yangidan yangi innovatsiyalar uchun moliyaviy resurslar ajratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Raqamli texnologiyalar sohasidagi muammolar va rivojlanishning tahlili va hal qilinishi davlatlar, korxonalar, akademik tashkilotlar va jamiyatning boshqa sohalari tomonidan amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madayev, O., Sobirov, A., Xolmanova, Z., Toshmirzayeva, S., Ziyodullayeva, G., & Shamsiyeva, M. O'zbekiston Respublikasi Oliy Va O'qitish Maxsus Ta'lim Vazirligi.
2. Кулинич, М. Б. "Digital Economy Trends in the Global Economic Space." *Modern Economics* 16, no. 1 (August 28, 2019): 57–63.
3. Нуриллаев, Р., & Нуриллаев, Ш. (2023). Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках.
4. Ubaydullayev, Lutfulla Xabibullayevich, and Bakhtiyor Nabijanovich Dedajanov. "The Digital Economy: Advantages and Risks." *Journal of Central Asian Social Studies* 02, no. 01 (January 1, 2021): 153–59.
5. Нуриллаев, Р. (2023). Обеспечение безопасности продуктов питания в меняющемся мире.
6. Zvyagin, L. S. "Digital Ecosystem and Global Digital Space as a Tool for Modern IT Solutions." *Ekonomika I Upravlenie: Problemy, Resheniya* 1, no. 4 (2020): 126–34.



2-TOM, 5-SON

7. Nurillaev, R. Y. (2024). Ensuring food safety in a changing world: challenges and solutions.
8. Frank, Robert H, Thomas D. Gilovich, and Dennis T. Regan, 1993, economical changes and problems *Journal of Economic Perspectives*, vol. 7(2): 159-171.
9. Nurillaev, J. Y. . (2021). Directions to Improve The Activities Of The Karakulchil Sector In Uzbekistan. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 3(02), 57–62. <https://doi.org/10.37547/tajir/Volume03Issue02-11>
10. Govekar, Michele A. and Meenakshi Rishi, 2007, Service-Learning: Bringing Real-World Education Into the B-School Classroom, *The Journal of Education for Business*, vol. 83(1): 3-10.
11. Nurillayev, J. Y. (2022). The role of corporate management system in providing financial security in commercial banks.
12. Hansen, W. Lee, Michael K. Salemi, and John J. Siegfied, 2002, Use It or Lose It: Teaching Literacy in the Economics Principles Course, *American Economic Review*, American Economic Association, vol. 92(2): 463-472
13. Nurillaev, J. Y. (2024). Theoretical and methodological foundations of financing karakul farming in a market economy.
14. Mkrttchian, Vardan, and Yulia Vertakova. "Digital Sharing Economy." *International Journal of Innovation in the Digital Economy* 10, no. 2 (April 2019): 40–53.
15. Nurillaev, J. (2024, April). The Role of Cluster Education and Science in The Stable Development of Society. In *International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies (Vol. 4, pp. 21-23)*.

